

# PEDAGOGIK МАХОРАТ

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2021-yil, dekabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2021

<b>DOLZARB MAVZU .....</b>	<b>7</b>
Rustam JUMAYEV. Raqobatbardosh sifatli ta'lrim: xalqaro tajriba va o'zbekiston ta'limi .....	7
<b>PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA.....</b>	<b>10</b>
Moxira RASULOVA. Oliy ta'lim muassasalarida axborot texnologiyalaridan foydalanim talabalarni o'qitish metodikasi .....	10
Matluba ZARIPOVA. Bo'lajak o'qituvchilarni innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini takomillashtirish yo'li va usullari .....	13
Ruqiya ASHURBAYEVA. G'arb ta'lim tizimida integrativ tamoyillarning tatbiqi .....	17
Olim TO'RAQULOV. Abdumo'min SABURBAYEV, Bunyod ESHONQULOV. Jalol AXMEDOV. Axborotli ta'lim muhitini raqamlashtirish: muammolar va yechimlar .....	20
Ruxshona ISROILOVA. Ona tini o'qitish metodikasi fanidan talabalarning bilimini baholashda kredit-modul tizimining afzalliliklari .....	25
Parvina NURALIYEVA. Ta'limda raqamli texnologiyalar va ularning zamonaviy jamiyatga ta'siri .....	28
Dilshod KULMURADOV. Rivojlangan mamlakatlardagi raqamli loyihalash kompetensiyalari hamda masofaviy ta'limning rivojlanishini o'rganish metodikasi .....	32
Ilhom JO'RAYEV. Pedagogik faoliyatda mobil texnologiyalardan foydalanishning qulayliklari .....	36
Mels MAHMUDOV, Flora NE'MATOVA. Designing primary education: problems and solutions .....	39
Sojida NAJIYEVA. Talabalar ijodiy faoliyatini va kredit-modul tizimdagи pedagogik ahamiyati .....	44
Гуландом САГДУЛЛАЕВА, Мамлакат МУСТАФАЕВА, Феруза ХАЛИЛОВА. "Blended learning" - современный подход к преподаванию в медицинском образовании .....	47
Nigina ISMATOVA. Kompetentlik yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda interfaol usullardan foydalanish .....	50
Shomurod MUSTAFAYEV. Jahon artpedagogik tizimlari tahlili orqali san'atning bilish funksiyasini takomillashtirish .....	53
Bahodir NORMO'MINOV. Bo'lajak pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirishning nazariy asoslari .....	57
G'ulom HAKIMOV. Oliy ta'lim tizimi faoliyatini tashkil etishda uni boshqarish samaradorligini baholash .....	60
I.A. ESHMAMATOV, A. ABDIRAXMONOV. Pedagog kadrlarning individual kasbiy layoqatga egaligini o'rganish monitoringi .....	63
Акрамжон ТЕШАБОЕВ. Современные подходы к физическому развитию детей дошкольного возраста .....	67
Nuriddin ACHILOV. Al-Hakim at-Termiziying "Qaytarilgan amallar" ("al-manhivot") asari va uning tarbiyaviy ahamiyati .....	76
Gullola RAXMONOVA. Talabalarni ma'naviy shakllantirishda ma'naviy –axloqiy tarbiyaning o'rni .....	80
Asroridin SAMIYEV. Talaba-yoshlarni hadis asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash texnologiyasi .....	83
Gulshoda XUDOYQULOVA. O'smir shaxsiga individual-psixologik yondashuvning o'ziga xos xususiyatlari .....	87
Nilufar DALIMOVA. Avlod ijtimoiy subyekt sifatida .....	91
Nozima MULLABAYEVA. O'smirlar jamoasida autsayderlar paydo bo'lishining psixologik omillari .....	94
Ситорабону ХОЛБОЕВА. Педагогические основы подготовки девушек студенток семейным отношениям .....	97
Анвар ЭРГАШЕВ. К вопросу духовно-нравственного воспитания с внедрением метод проекта в условиях дистанционного обучения .....	101
Fozil TO'RAXONOV. Fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirishning metodik asoslari .....	105
Аслиддин УЗОҚОВ. Таалabalarda мафкуравий иммунитетни шакллантириш технологияси .....	109
Саломат ЖҮРАЕВА. Узлуксиз таълимда ватанпарварликни шакллантиришнинг педагогик омиллари .....	114
<b>МАКТАБГАЧА VA BOSHLANG'ICH TA'LIM .....</b>	<b>118</b>
Rustambek QO'LDOSHEV. Boshlang'ich sinf chapaqay o'quvchilarga beriladigan pedagogik yordam va yozuvga o'rgatish jarayonida foydalilanligidan texnologiyalar .....	118
Ruxshona ISROILOVA. Oliy ta'limda kredit-modul tizimi asosida ona tilini o'qitish metodikasi fani ta'limi muammoining fanda yoritilishi .....	123
O'g'iljon OLLOQOVA. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning kompetensiyaviy yondashuvini tashkil etish .....	126

O'g'iljon OLLOQOVA

Buxoro davlat universiteti  
boshlang'ich ta'lif metodikasi  
kafedrasи o'qituvchisi

## BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KOMPETENSIYAVIY YONDASHUVINI TASHKIL ETISH

*Maqolada lingvitik kompetensiyaning mazmun-mohiyati, jahon pedagoglarining qarashlari bayon qilingan. Lingvistik kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismi sifatida pragmatik kompetensiya qaralib tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** kompetensiya, lingvistik kompetensiya, pragmatika, pragmatik kompetensiya, nutq, matn, ijodiylik.

*В статье раскрывается сущность языковой компетенции, взгляды педагогов всего мира. Прагматическая компетенция рассматривается и анализируется как ключевой компонент языковой компетенции.*

**Ключевые слова:** компетенция, языковая компетенция, прагматика, прагматическая компетенция, речь, текст, креативность.

*The article describes the essence of linguistic competence, the views of educators around the world. Pragmatic competence is considered and analyzed as a key component of linguistic competence.*

**Key words:** competence, linguistic competence, pragmatics, pragmatic competence, speech, text, creativity.

**Kirish.** Bolaning tafakkuri, ijodiyligi, tanqidiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilgan ta'lif tizimida boshlang'ich sinfni tugatayotgan har bir o'quvchi shaxsiga bir qancha zamonaviy, shu jumladan, uning muvaffaqiyatlari ijtimoiylashuvi nuqtayi nazaridan yangi talablarni qo'yadi. Binobarin, o'qitishning maqsadlari, vazifalari, mazmuni, uslublari va usullarini qayta ko'rib chiqqan holda ishlab chiqilgan yangi milliy dasturning qabul qilinishi bu boradagi ishlarning samarasini oshirishda asosiy dasturulamal bo'lib, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, aqliy va ijodiy salohiyatining yanada yuqori bo'lishida xizmat qiladi.

Yangi tahrirdagi milliy o'quv dasturga ko'ra nashr qilingan ona tili va o'qish savodxonligi darsligining 1-va 2-sinflarda joriy qilinishi o'quvchi va o'qituvchining faolligini oshirishni, o'z ustida tinimsiz ishlashni, o'quv topshiriqlarni ijodiy yondashgan holda bajartirish va bajarishni nazarda tutadi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad PIRLS xalqaro tadqiqotdan ko'zlangan asosiy maqsadga erishishdir.

PIRLS xalqaro tadqiqoti boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qib tushunish ko'nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o'qish va o'qitishni yaxshilashda ta'lif sohasidagi davlat siyosatiga xizmat qilishi mumkin bo'lgan tahlillarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturi hisoblanadi.

Shunday ekan, ona tili va o'qish fanlarini o'zaro integratsiya qilgan holda yagona fan sifatida o'qitilishi o'quvchilarning diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan-to'g'ri o'zi mustaqil xulosalar chiqarish, matn elementlarini tanqidiy baholash, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish malakalarini shakllantiradi.

Shu bilan birga, ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda o'quvchilarda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish vazifasi muhim bo'lib, ularning mazmun-mohiyati turlicha, biroq bir-birini to'ldiruvchi tushunchalardir. O'quvchilarga lingvistik tushunchalarni o'rgatish, ularda nutq malakalarini shakllantirish, nutqni grammatik, semantik va stilistik jihatdan to'g'ri tuzishni o'rgatishni nazarda tutadi.

**Asosiy qism.** Ona tili va o'qish savodxonligi fanini joriy etishda o'quvchilarda lingvistik kompetensiyani shakllantirish muammosi eng muhim masalalardan biri bo'lib, bu muammoning yechimlari turlicha. Lingvistik kompetensiya fonetik, orfografik, leksik, grammatic bilimlarni o'zlashtirishni o'z ichiga oladi va o'quvchilarda nutqiy qobiliyatni rivojlanadir. Lingvistik kompetensiyaning asosini ikkita komponent tashkil qiladi:

- o'rgatilgan qoidalarga asoslangan bilim;
- nutqni tushunish va muloqot qilish qobiliyati.

O'quvchilarda nutq malakalarini shakllantirish uchun faqat lingvistik kompetensiyani rivojlanirish yetarli emas. Nutq malakalari lingvistik va kommunikativ kompetensiyani, ya'ni til tizimi va uning tuzilishi haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi; tilning tuzilish tarkibi bo'yicha ma'lumotlar tizimiga ega bo'lish: fonetika,

lug‘at, so‘zlarning tuzilishi va so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis va nutq uslublari asoslari; til tizimidan amaliyotda foydalanish qobiliyati va boshqalar.

Til tizimi haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish o‘z-o‘zidan amalgalash oshmaydi. Lingvistik kompetensiyani shakllantirish jarayonida o‘quvchi shaxsini, uning o‘rganilayotgan til tizimi haqidagi bilimlaridan foydalanish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ya’ni, lingvistik kompetensiya doirasidagi ta’lim va til ko‘nikmalarini shakllantirish nazarda tutiladi.

Lingvistik kompetensiyaga mutaxassislar tomonidan turli davrlarda turlicha ta’riflar berilgan. Ural Federal universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi T.A.Pirkova “Содержание и структура лингвистической компетенции” (Lingvistik kompetensiyaning mazmuni va tuzilishi) nomli maqolasida lingvistik kompetensiyaga berilgan bir qancha ta’riflarni keltirgan.

Mahalliy fanda 80-yillarning oxiri - 90-yillarning boshlarida A.L.Berdichevskiy nutqiy, lingvistik va madaniy-kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish g‘oyasini ilgari suradi. “Kommunikativ kompetensiyani o‘zlashtirishning asosiy tarkibiy qismlari nutqiy, lingvistik va madaniy kompetensiyalardir” – deb ta’kidlaydi. U I.A.Zimnyadan keyin lingvistik kompetensiyani “til tizimi va uning chet tilidagi muloqotda ishslash qoidalarini bilish, ya’ni lingvistik kompetensiya ma’lum kommunikativ salohiyatga ega bo‘lgan til vositalarining mavjudligi, tilni bilish” deb tushunadi.

I.L.Beam qarashlari lingvistik kompetensiya va sotsiolingvistik jihatlarni o‘z ichiga oladi va uni “lingvistik vositalarga ega bo‘lish, matnni yaratish va tushunish jarayoni” deb ta’riflaydi.


E.V.Tixomirova o‘z tadqiqot doirasidagi dissertatsiyasida lingvistik kompetensiya chet tilidagi lingvistik shakllardan (fonologiya, morfologiya, lug‘at, sintaksis) to‘g‘ri foydalanishda namoyon bo‘lishini ta’kidlab o‘tgan.

R.K.Minyar-Beloruchev lingvistik kompetensiyani “til tizimi va nutq faoliyati jarayonida lingvistik vositalardan foydalanish qoidalarini bilish” deb belgilashni taklif qiladi.

Yevropa Kengashi a’zosi, britaniyalik tilshunos Van Ek 1990-yilda kommunikativ kompetensiyaning o‘ziga xos modelini taklif qildi va uning asosiy tarkibiy qismlari orasida lingvistik kompetensiyani “tilning lug‘atini o‘zlashtirish va leksik birlıklarini ma’noli so‘zlarga birlashtirish qobiliyati” deb ta’kidladi.

Shunday qilib, lingvistik kompetensiya deganda grammatic jihatdan to‘g‘ri shakl va sintaktik konstruksiyalarni qurish, shuningdek, nutqdagi semantik bo‘laklarni tilning mayjud me’yorlariga muvofiq tashkil eta olish va ulardan qaysi ma’noda foydalanish qobiliyati tushuniladi.

Lingvistik kompetensiya kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismidir. Lingvistik kompetensiya til faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar to‘plamini amalda qo‘llash qobiliyatiga asoslanadi. Shu nuqtayi nazardan lingvistik kompetensiya turlari 1-chizmada tavirlangan:



**Muhokamalar va natijalar.** Pragmatik kompetensiyasining mazmun-mohiyatini tushunish uchun eng avval pragmatika tushunchasini tahlil qilaylik. Pargmatika va pragmatik kompetensiya E.G.Azimov va A.N.Shukinlarning “Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам)” nomli kitobida quyidagicha ta’riflangan:

Pragmatika yunoncha “pragma” so‘zidan olingen bo‘lib, “harakat”, “ish” degan ma’noni bildiradi. Pragmatika tilshunoslikning nutqdagi til shakllarining ishlashini o‘rganadigan bo‘limi, ya’ni nutq, so‘zlovchi va kontekst o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi.

Pragmatikaning nazariy asoslarini bir qancha chet el tilshunos faylasuflari B.Rassell, J.Ostin, J.Searle kabilar o‘rganganlar.

Pragmatika o‘z sohasi doirsida bir qancha til bilan bog‘liq muammolarni tadqiq qiladi. Xususan, nutq faoliyatlarining tuzilishi va tasnifi, so‘zlarni izohlash, nutqiy munosabat shakllari, nutq qoidalari, taktikasi va turlari va boshqalar.

U nutqni kommunikativ va pragmatik maqsadga muvofiq qurish qobiliyatida ifodalanadi.

Tilshunoslikda pragmatik kompetensiya - bu kontekstga mos ravishda tildan samarali foydalanish qobiliyatidir. Pragmatik kompetensiya ko‘proq umumiylar kommunikativ kompetensiyaning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu atama 1983-yilda sotsiolingvist Jenni Tomas tomonidan kiritilgan. U “Madaniyatlararo pragmatik muvaffaqiyatsizlik” maqolasida pragmatik kompetensiyaning “Ma’lum bir maqsadga erishish va tilni kontekstda tushunish uchun tildan samarali foydalanish qobiliyatini” deb ta’riflagan.

Ma’lum yosh davrida bola so‘zlarni aniq talaffuz qilishi, grammatik jihatdan to‘g‘ri jumlalar tuzishi va muayyan atamalarni qo‘llashi mumkin, ammo u pragmatika qoidalariiga rioya qilmasa, ya’ni nutq vaziyati haqida hech qanday tasavvurga ega bo‘lmasa, muloqotda muammolar paydo bo‘lishi mumkin. Bunday holatning oldini olish uchun o‘quvchida pragmatik kompetensiyaning takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.


O‘tgan asrda ham, XXI asrda ham pragmatik kompetensiyaning shakllantirish muammosi chet el va o‘zbek olimlarining, bir qancha sotsiolog, sotsiolingvist, filologlarning diqqat markazlarida bo‘lib, o‘zlarining ilmiy qarashlarini ilgari surishgan.

Pragmatika tilshunoslikning kichik sohasi bo‘lib, u “tilni foydalanuvchilar nuqtayi nazaridan, ayniqsa, ular qilgan tanlovlardan, ijtimoiy o‘zaro munosabatlarda tildan foydalanishda duch keladigan qiyinchiliklar va ularning tildan foydalanishga ta’sirini o‘rganish” deb ta’riflangan.

Bu atama dastlab 1938-yilda Morris til falsafasiga kiritgan, lekin bu sohadan sotsiolingvistika va boshqa tub fanlar bilan bog‘liq bo‘lib rivojlandi. Hozirgi vaqtida ushbu atama ikkinchi va chet tilini o‘lashtirish va o‘qitish sohasida keng qo‘llaniladi, ayniqsa kommunikativ kompetensiyaning umumiylar kontsepsiyasining tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Pragmatik kompetensiya tushunchasi dastlab Xomskiy (1980) tomonidan “turli maqsadlarga muvofiq (tildan) to‘g‘ri foydalanish shartlari va usullarini bilish” sifatida ta’riflangan.

P.V.Sisoyev, P.Y.Zolotovlar o‘zlarining ilmiy izlanishlarida pragmatik kompetensiyaning shakllantirishning mazmun-mohiyatini chet tili misoldida to‘laroq ochib berishga harakat qilishdi.

“Pragmatik kompetentsiyaga ko‘ra, odamning nutqni qurish qoidalari, shuningdek, kommunikativlarning o‘zaro ta’sirining xususiyatlariga va ijtimoiy va madaniy kontekstga muvofiq turli kommunikativ funksiyalar uchun so‘zlarni talqin qilish va ulardan foydalanish qobiliyatini tushunish taklif etiladi. Pragmatik kompetensiya chet tilidagi kommunikativ kompetensiyaning barcha tarkibiy qismlarini qamrab oladi. Tarkibiy jihatdan uning qismlari 2-chizmada ko‘rsatilgan.



Bialystok (1993) fikricha, pragmatik kompetensiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1) so‘zlovchining tildan turli maqsadlarda foydalanish qobiliyati;

2) tinglovchining tildan o‘tib, so‘zlovchining asl niyatini tushunish qobiliyati (masalan, bilvosita nutq harakatlari, kinoya);

3) nutqni yaratish uchun gaplarning birikishi qoidalarining buyrug‘i.

Rossiya Federatsiyasi Hukumati huzuridagi Moliya universiteti katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari nomzodi M.V.Zaxarova o‘zining “К вопросу о прагматической компетенции студентов неязыковых направлений подготовки” (Nolingvistik ta’lim yo‘nalishlari talabalarining pragmatik kompetensiyasi masalasi) nomli maqolasida chet tilini bilish va uning tarkibiy qismlari bo‘yicha tadqiqotlar ko‘rib chiqqan, talabalar tomonidan pragmatik kompetensiyaga erishish uchun o‘quv jarayoniga nima kiritilishi kerakligi, pragmatik kompetensiya qanday bo‘lishi kerakligi, pragmatik o‘qitish moduli samaradorligini qanday baholash kerakligini ko‘rsatib o‘tgani.

Pragmatik kompetensiya ma’lum bir vaziyat yoki kontekstga o‘ziga xos lingvistik ma’nolarni yaratish yoki berish uchun foydalaniladigan ko‘nikmalar to‘plami sifatida belgilanishi mumkin. U quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) strategik kompetensiya;

b) to‘liq matnlar yaratish uchun jumlalar yoki gaplarni birlashtira olish qobiliyatini ifodalovchi diskursiv kompetensiya;

d) funksional kompetensiya, bu til tuzilmalarining umumiy yoki ma’lum bir kontekstda talqin qilinishini tartibga soluvchi qoidalardan foydalanish qobiliyatini anglash;

e) real dunyoda tildan foydalanish natijalarini baholash, masalan, xavfsizlikni ta’minalash yoki samaradorlikni ta’minalash.

Amerikalik lingvist Dell Xeteuey Xims (1972) kommunikativ kompetensiya tushunchasini ishlab chiqdi, bunda u suhbatdoshni tushunish uchun ham grammatik aniqlik (jumladan, grammatik tuzilmalar va so‘zlardan foydalanish), ham tildan to‘g‘ri foydalanish (kontekst aniqligi) zarurligini ta’kidladi.

Angilyalik faylasuf Pol Grice (1975) o‘zining ilmiy ishlarida so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi hamkorlik tamoyillarini o‘rganib, ularni maksimal miqdor, maksimal sifat, maksimal munosabat, maksimal xarakter tushunchalari orqali ifodalaydi.

Inliz tilshunosi Jeffri Neal Leach (1983) so‘zlashuv odobining eng yuqori darajalari ya’ni maksimumlarini yaratgan: xushmuomalalik (boshqalarning xohish-istiklariga maksimal darajada e’tibor berish), saxiylik (boshqalar uchun maksimal afzallik), ma’qullah (boshqalarni maksimal darajada ma’qullah), kamtarlik (o‘zini maqtashni minimallashtirish), kelishuv (maksimal) kelishuv), empatiya (boshqalarga maksimal darajada hamdardlik).


Biz yuqorida kommunikativ va pragmatik kompetensiya haqida chet el tilshunoslarning ayrim fikrlarini keltirdik. O‘quvchilarda pragmatik kompetensiyani shakllantirish masalasi o‘zbek tilshunoslarning ham ilmiy qarashlarida o‘z ifodasini topgan. Xususan, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Baxtiyor Daniyarov “Umumiylar ta’lim muassasalarida o‘quv fanlarini o‘qitishda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish masalalari” nomli maqolasida “Boshlang‘ich sinflar o‘quvchilarida pragmatik kompetensiyani shakllantirishda o‘quvchilarning zukkoliklaridan samarali foydalangan holda ularga berilgan savollarga o‘quvchilar erkin javob berishlari, agar savol tushunarli bo‘lmasa (*notanish mavzuda murakkab gap va boshqalar*), “Sorry” degan holda o‘zları bilgan ma’lumotlarni, she’rlarni aytib berishlari va noqulay vaziyatdan chiqib keta olishlari mumkinligini tushuntirish lozim” - deb ta’kidlaydi.

## **Adabiyotlar**

1. Olloqova M. O. Intensive education and linguistic competence in mother tongue //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – T. 11. – №. 1. – C. 580-587.
2. Olloqova O. M. ONA TILI DARSLARIDA INTENSIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH //Scientific progress. – 2021. – T. 2. – №. 6. – C. 1025-1029.
3. Mamanazarovna O. U., Gulnoza M. USE OF DIDACTIC GAMES IN MOTHER TONGUE LESSONS. – 2021.
4. Sayfullaev G., Alimova L., Ollokova U. Formation of environmental knowledge in pupils of second class in the lessons the world around us //Bridge to science: research works. – 2019. – C. 206-208.
5. OLLOQOVA O. ONA TILI TA’LIMIDA INTENSIV TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI QO’LLASHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – T. 1. – №. 1.

**#6, 2021 PEDAGOGIK MAHORAT\*ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО\*PEDAGOGICAL SKILL**

6. Yunus Y. S. DEVELOPMENT OF LOGICAL THINKING IN MATHEMATICS LESSONS AS THE BASIS FOR IMPROVING THE QUALITY OF THE EDUCATIONAL PROCESS.
7. Yunus Y. S. et al. Use of innovative technologies in improving the efficiency of primary school students //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 11. – №. 1.
8. YUSUFZODA S. О ‘QUVCHI MANTIQIY TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ. – 2020. – Т. 1. – №. 1.
9. Yunus Y. S. Features of Logical Thinking of Junior Schoolchildren //Middle European Scientific Bulletin. – 2021. – T. 10. – №. 1.
10. Yusufzoda S. Organization of independent work of students in mathematics //Bridge to science: research works. – 2019. – C. 209-210.
11. Jobirovich Y. M. The Role Of Digital Technologies In Reform Of The Education System //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2021. – T. 3. – №. 04. – C. 461-465.
12. Jobirovich Y. M. Advantages of the Introduction of Digital Technologies into the Educational Process //Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT. – 2021. – T. 7. – C. 17-20.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo’llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o’tamiz, maqola qo’lyozmalari universitet  
tahriri-nashriyot bo’limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko’chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g’aznachiligi  
23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275  
**BuxDU 400110860064017950100079002**

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

**PEDAGOGIK  
MAHORAT**

**Ilmiy-nazariy va metodik  
jurnal**

**2021-yil 6-son (82)**

**2001-yil iyul oyidan  
chiqa boshlagan.**

**OBUNA INDEKSI: 3070**

**Buxoro davlat universiteti nashri**

Jurnal oliv o’quv yurtlarining professor-o’qituvchilar, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o’qituvchilar, shuningdek, keng ommaga mo’ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

**Nashr uchun mas’ul:**

**Alijon HAMROYEV.**

**Musahih: Muhiddin BAFAYEV.**

**Muharrir: O’g'iljon Olloqova**

Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 28.12.2021  
Bosmaxonaga topshirish vaqtি  
05.01.2022

Qog’oz bichimi: 60x84. 1/8

Tezkor bosma usulda bosildi.

Shartli bosma tabog’i – 29,0

Adadi – 100 nusxa

Buyurtma № 6

Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadiddin Salim Buxoriy” MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: Buxoro shahri  
M.Iqbol ko’chasi 11-uy.